

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**AVTOMOBIL YO'LLARIDA INSON XAVFSIZLIGINI ISHONCHLI TA'MINLASH VA O'LIM
HOLATLARINI KESKIN KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'limga olib kelgan yo'l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo'lib, avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, yo'l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy talablariga to'liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo'naltirilgan samarali tizimni yo'lga qo'yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.

2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida avtomobil yo'llarida inson hayoti va sog'lig'ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida:

1. Quyidagilar mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlari etib belgilansin:

avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo'l harakati ishtirokchilarining "piyoda — jamoat transporti — velotransport — avtotransport" ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish;

haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan holda, o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

haydovchi va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash;

yo'l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo'lga qo'yish, ushbu amaliyotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida joriy etish;

yo'l harakatini tashkil etishni to'liq raqamlashtirish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda, yangi boshqaruv va nazorat tizimlarini tatbiq qilish.

2. Yo'l harakati qoidalariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash hamda ularni takroran buzish holatlarining oldini olish maqsadida 2022-yil 1-dekabrdan boshlab quyidagi tartibni nazarda tutuvchi haydovchilarga yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimi joriy etilsin:

har bir yo'l harakati qoidabuzarligi uchun 12 oy davomida alohida jarima ballari hisoblab boriladi;

hisoblangan jarima ballari belgilangan miqdordan oshgan hollarda haydovchi ma'lum muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan o'rnatilgan tartibda mahrum qilinadi;

muayyan davr mobaynida yo'l harakati qoidabuzarligi sodir etmagan haydovchilarga keyinchalik hisoblangan jarima ballarini qisqartirish orqali rag'batlantirish choralari qo'llaniladi.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov), Adliya vazirligi (R.Q. Davletov) bir oy muddatda ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, haydovchilarga yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarini kiritсин.

3. Haydovchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatini amalga oshiruvchi barcha ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda —

avtomaktablar) va imtihon markazlariga faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi;

avtomaktablarning innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning o'qituvchi, haydovchi-yo'riqchi va murabbiylarini shartnoma asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki ishlar vazirligi (A.I. Ikramov, B.T. Abdullayev):

bir oy muddatda avtomaktablar va imtihon markazlariga qo'yiladigan talab va mezonlarni qayta ko'rib chiqib, ularning o'quv faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan qat'iy choralarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini kiritсин;

ikki oy muddatda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida avtomaktablarning o'qituvchi, haydovchi-yo'riqchi va murabbiylarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etish bilan bog'liq barcha zarur o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazani yaratsin.

Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov zimmasiga avtomaktablar va imtihon markazlari faoliyati bo'yicha yangi joriy etilayotgan tizimni samarali yo'lga qo'yish hamda haydovchilarni sifatli tayyorlashni tashkil etish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Belgilansinki:

a) Nukus va Toshkent shaharlari, viloyatlar markazlarida chorrahalarini to'liq raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari zimmasiga yuklanadi;

b) Nukus va Toshkent shaharlari, viloyatlar, tuman (shahar)lar markazlarida yo'l belgilari, ko'rsatkichlari va svetoforlarni o'rnatish, yo'l chiziqlarini chizish, piyodalar o'tish joylarini belgilash orqali yo'l harakati vositalarini tartibga solishga ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari (keyingi o'rinlarda — yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari) mas'ul hisoblanadi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.X. Shermatov), Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) bilan birgalikda ikki oy muddatda, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida investorlarni jalb qilgan holda, chorrahalarda raqamli boshqaruv tizimini quyidagi davrlarda joriy qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilaydi:

2023-yil yakuniga qadar poytaxtning barcha chorrahalarida, shuningdek, Nukus shahri va viloyatlar markazlarining yirik asosiy serqatnov chorrahalarida;

2024-yil yakuniga qadar Nukus shahri va viloyatlar markazlarining barcha chorrahalarida;

g) tuman (shahar) hokimliklariga o'z hududlaridagi avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalarini buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish huquqi beriladi. Mazkur dasturiy-texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima summasining 30 foizi bevosita tuman (shahar) mahalliy budjetiga yo'naltiriladi hamda ushbu mablag'lar yo'l harakatini raqamlashtirish, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, yo'l-patrul xizmati xodimlarining qo'shimcha shtatlarini kiritishga sarflanadi.

Ichki ishlar vazirligi (B.T. Abdullayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda transport va piyodalar oqimi, piyodalar bilan bog'liq sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining tahlili asosida tumanlar va shaharlardagi aholi gavjum hududlarda piyodalar o'tish joylariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni 2023-yil yakuniga qadar o'rnatilishini nazarda tutuvchi manzilli dasturni tasdiqlasin va ijrosini to'liq ta'minlasin.

5. Ichki ishlar vazirligining quyidagi takliflari ma'qullansin:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklarining maxsus ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari hamda Toshkent shahar hokimligining Yo'l harakatini tashkil etish markazini (keyingi o'rinlarda — ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari) ikki oy muddatda tegishincha hududiy ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari huzuriga o'tkazish;

ichki ishlar vaziriga yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalariga budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan malakali xorijiy mutaxassislarni maslahatchi sifatida shartnoma asosida jalb qilish huquqini berish;

“Uzavtomotobelgi” davlat unitar korxonasida yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ushbu sohada raqobat muhitini shakllantirish;

Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tuzilmasida Yo'l infratuzilmasini nazorat qilish boshqarmasini, hududiy yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari tuzilmalarida yo'l infratuzilmasini nazorat qilish bo'limlarini ichki ishlar organlarining cheklangan shtat birliklari hisobidan tashkil etish.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarini yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari huzuriga o'tkazishda:

ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarining bino va inshootlarini, ularning yondosh hududlari, moddiy-texnika bazasini, shu jumladan yangi zamonaviy maxsus texnika bilan ta'minlagan holda topshirish choralari ko'rsin;

ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarining mavjud kreditor va debitor qarzlari to'lanishini, ma'nan eskirgan va yaroqsiz holga kelgan moddiy-texnika vositalari hisobdan chiqarilishini ta'minlasin.

Ichki ishlar vazirligi (B.T. Abdullayev):

ikki oy muddatda ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarining faoliyatini tartibga soluvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritin;

ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari tegishli bino va inshootlari, ularning yondosh hududlari, zarur moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlangan holda qabul qilinishini tashkil etsin;

uch oy muddatda ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarining faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini to'liq o'rnatish va ularning doimiy ishlashini ta'minlash bo'yicha yangicha ish usullarini joriy etsin.

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bir oy muddatda:

Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari boshliqlari va ularning bir nafar o'rinbosari lavozimlari ushbu bo'linmalarining mavjud shtat birliklari hisobidan ofitserlik tarkibidagi xodim lavozimlariga o'zgartirilishini ta'minlasin;

ushbu qarorga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari hamda Ichki ishlar vazirligining xarajatlar smetalariga tegishli o'zgartirishlar kiritin.

7. 2022-yil 5-apreldan boshlab Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda “Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda” respublika jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etilsin.

Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

1-ilovaga muvofiq miqdorlarda yo'l harakatini tashkil etish sohasida undiriladigan jarima, olinadigan yig'im va to'lovlar;

ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari uchun har yili budjet parametrlarida dasturlar asosida alohida tadbirlar uchun ko'zda tutiladigan mablag'lar;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga depozit hisobraqamlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

davlat, xorijiy va xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan grantlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik va xayriya tarzidagi mablag'lari;

xalqaro moliyaviy institutlar va banklar tomonidan ajratiladigan kreditlar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilansinki, Jamg'arma mablag'lari faqat quyidagilar uchun maqsadli sarflanadi:

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari, ularning ehtiyot qismlari, o'rnatish uchun belgilangan konstruktsiya va qurilish materiallari hamda maxsus bo'yoqlarini xarid qilish;

shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalarida yo'l chiziqlarini chizish, yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish, almashtirish, saqlash, demontaj qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni moliyalashtirish;

ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan zamonaviy maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash, ularga ish hajmidan kelib chiqqan holda ma'lum muddatga qo'shimcha shtatlar kiritish, shartnomalar asosida mutaxassislarni jalb qilish, ularning xodimlari, ishchi va xizmatchilari uchun har oylik va bir martalik rag'batlantirish tizimini joriy etish;

yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishidagi loyihalarni moliyalashtirish;

maktabgacha ta'lim hamda xalq ta'limi vazirliklariga qarashli maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchi va o'quvchilarida yo'l harakati qoidalarini bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirishga qaratilgan moddiy-texnik va o'quv bazasini yaratish, shuningdek, mahallalarda bolalarga yo'l harakati qoidalarini amaliy o'rgatish maydonchalariga yo'l belgilarini o'rnatish va yo'l chiziqlarini chizish chora-tadbirlarini moliyalashtirish.

8. Avtomobil yo'llarida harakatni tashkil etish, boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasi va uning hududiy maxsus komissiyalari (keyingi o'rinlarda — maxsus komissiyalar) [2](#) va [3-ilovalarga](#) muvofiq tuzilsin.

Maxsus komissiyalar zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilsin:

yo'l harakati xavfsizligi sohasida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini ishonchli himoya qilish, yo'l infratuzilmasining xavfsizlik talablariga to'liq javob berishini ta'minlash;

hududlarda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini muntazam ravishda baholab borish, ushbu sohada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning samarali faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish;

yo'l-transport hodisalarini sabablarini chuqur o'rganish, yo'llarning xavfli avariya uchastkalari ro'yxatini tasdiqlash orqali kelgusida ularning oldini olish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan takliflar tayyorlash tizimini yaratish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, inson omili va korrupsiya holatlarini istisno etuvchi avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini ommalashtirishga doir tadbirlarni belgilash;

hududlarda yo'l infratuzilmasini yaxshilash, yo'l-transport hodisalarining sonini qisqartirish bo'yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqilishini tashkillashtirish va kelishish.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasi to'g'risidagi nizomi [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Respublika maxsus komissiyasi (A.N. Aripov):

bir oy muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari raisligida hududiy maxsus komissiyalarning namunaviy nizomini tasdiqlasin;

har chorakda davlat organlari va mahalliy hokimliklar tomonidan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni, mavjud kamchiliklarni tanqidiy muhokama qilib borsin va tegishli choralar ko'rilishini ta'minlasin;

har yili mahalliy hokimliklarning o'z hududlarida avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish va yo'l-transport hodisalarini keskin kamaytirish bo'yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi manzilli chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan "yo'l xarita"larini tasdiqlab, ularning ijrosi ustidan qat'iy nazorat olib borsin.

9. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari maxsus komissiyalarning ishchi organi hisoblanadi;

ishchi organlar muntazam ravishda tegishli davlat organlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini tahlil qilib boradi va maxsus komissiyalarning yig'ilishlarida muhokama qilish uchun hujjatlarni tayyorlaydi;

hududiy maxsus komissiyalar har oyda yo'llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o'choqlari, qoidabuzarliklarning tahlilidan kelib chiqib, harakat xavfsizligi, transport va yo'l sohasiga mas'ul idoralar rahbarlari faoliyatini tanqidiy o'rganadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga muhokama qilish uchun kiritadi va natijalari bo'yicha respublika maxsus komissiyasiga hisobot taqdim etadi.

10. Hududlarda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash va bu borada mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022-yil 1-iyuldan boshlab, respublikaning barcha tuman (shahar)lari kesimida "Xavfsiz yo'l" indeksi (keyingi o'rinlarda — indeks)ni yuritish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Belgilansinki:

indeks doirasida yo'l infratuzilmasi va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishining holati maxsus komissiyalar tomonidan **5-ilovaga** muvofiq 29 ta indikator bo'yicha har chorak yakunida baholab boriladi;

tuman (shahar)lar indeks ko'rsatkichlari asosida yo'llarda harakat xavfsizligini tashkil etishning holati bo'yicha "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratiladi;

indeksni yuritish vazifasi yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari zimmasiga yuklanadi.

Vazirlar Mahkamasi (A.N. Aripov) ikki oy muddatda yetakchi ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda, indeksni yuritish metodologiyasi ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlasin.

11. Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) yo'l harakati xavfsizligini ishonchli ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish maqsadida "Umr tezlikdan muhimdir" va "Xavfsizlik kamari — hayot garovi" shiorlari ostida kompleks targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etsin;

b) bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutgan holda, o'quvchilar orasida yo'l harakati qoidalarini targ'ibotini kuchaytirishga qaratilgan Hukumat qarori loyihasini kiritsin:

"Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi" shiori ostida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilariga yo'llarda, chorrahalarda va piyodalar o'tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy-ko'rgazmali tarzda o'rgatish, ularning ongiga bolaligidan boshlab yo'l harakati intizomini singdirish;

maktablarda "Harakat xavfsizligi sinfxonalari"ni, mahallalarda "Yo'l harakatini o'rgatish maydonchalari"ni tashkil etish;

v) ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga **6-ilovaga** muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 4-aprel,
PQ-190-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi
PQ-190-son **qaroriga**
1-ILOVA

**Yo'l harakatini tashkil etish sohasida undiriladigan jarima, olinadigan yig'im va to'lovlarning
"Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" respublika jamg'armasiga o'tkaziladigan**